

Mannabova E'zoza Baxromjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Madaniyat va hayotiy bardoshlilik bizning farovonligimiz va hayotdagi muvaffaqiyatimizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ikkita muhim jihatdir.

Madaniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatları tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. „Madaniyat“ tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda „madaniyat“ atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.¹

Insonning insonga bo'lgan munosabati madaniyatda mavjud bo'lgan ideal bilan tartibga solinadi va hayotning muayyan sharoitlarida ma'lum odamlarning harakatlarida namoyon bo'ladi.²

Madaniyat mahsulotlari o'ziga xos "zahira omborlari" sifatida taqdim etiladi, unda inson tarix davomida eng yaxshi narsalarni saqlab qoladi. Insoniyat — bu madaniyat mahsulotlari, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan odamlar to'plami bo'lib, ularning har biri faqat o'zaro ta'sirdagina o'ziga xos ma'noga ega.³

Har bir madaniyat ma'naviy tayanchga aylanishi mumkin bo'lgan tasvirlar bilan to'la; har bir madaniyatda ma'lum bir qadriyatlarga singib ketgan odamlarga barqarorlik hissi beradigan an'analar mavjud.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>

² Абрамова Г. С.Возрастная психология: учеб, пособие для студ. вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 1998. – 672.

³ Рубинштейн С. Л. Человек и мир. – СПб.: Питер, 2003. – 512 с.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Eposning roli. Har bir madaniyat o‘z qahramonlarining xotirasini olib yuradi. Qadim zamonlardan biror bir qahramonlik qilgan insonning martabasi juda ulug‘langan. Bunday insonlar boshqalarni ham o‘zini rivojlantishga umid, imkoniyat borligini aytishgan. I.Y.Medvedeva va T.L.Shishova ota-onalar uchun ishlab chiqligan kitoblarida bolaning shaxsiyatini shakllantirish davrida unga psixologik yordam, yashash uchun kuch beradigan yuksak romantik, qahramonlik ideallari rollarining ahamiyati muhimligini ta’kidlaydilar. Biroq, qahramonlar nafaqat ertaknamo, tarixiy, balki zamonaviy ham bo‘lishi kerak. Romantik qahramonlikka bo‘lgan irratsional, chuqur, arxetipik ehtiyoj ijtimoiy munosabatlarga zid kelmasligi kerak. Bunday holda, psixika tayanch nuqtasini yo‘qotadi.⁴

M.I.Volovikova, S.V.Tixomirova, A.M.Borisovaning “Bayram psixologiyasi” kitobida bayramlarning inson hayotidagi psixologik roli, ular insonlar uchun psixoterapevtik rol o‘ynashi imkoniyatini berishi haqida yozilgan.

Mualliflarning ta’kidlashicha, bayramlarda hayot siklining ritmi aks etgan. Hayotning bu siklik tabiatи odamda barqarorlik hissi paydo bo‘lishi uchun juda muhimdir. Yagona ritm rivojlanayotgan odamning aqliy sohasining uyg‘un shakllanishi uchun muhimdir, bu I.Shmelevning “Лето Господне” asarida ajoyib tarzda aks etadi. “Bayram bolaning qalbida sodir bo‘layotgan barcha narsalarning ma’nosini ko‘rish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bir bayramdan ikkinchi bayramga o‘tishda o‘lim holati yengib o‘tiladi, shukronalik hissi paydo bo‘ladi, kundalik narsa va hodisalar ajoyibdek tuyuladi. Bayram dunyoning yaxlitligi tasvirini shakllantiradi, voqealar va hodisalarning muhim aloqasi bo‘lib xizmat qiladi”.⁵

Shunday qilib, bayram madaniyati barqarorlik hissi bilan bog‘liq bo‘lgan “kundalik” bardoshlilikni, “yillik doirani” yengishga tayyorlikni, hayot voqealarini boshdan kechirishda xotirjamlikni o‘zida aks ettiradi. Qahramonlik eposi muhim ishni bajarish uchun barcha ishonch va mas’uliyat bilan g‘ayrioddiy voqealarga qo‘shilishiga zamin yaratgan.

⁴ Медведева И. Я, Шишова Т. А. Книга для трудных родителей // «Изд-е Звонница – МГ» и «роман-газета», 1994. – 267 с.

⁵ Воловиковой М. И., Тихомировой С. В., Борисовой А. М. Психология праздника: Праздник в жизни человека. – М.: ПЕР СЭ, 2003. – 143 с.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Maqol va matallar ko‘rinishidagi xalq madanyati xalq pedagogikasining muhim va ajralmas qismi sanalishi bilan birga, psixoterapeutik funksiyalarni ham bajaradi. O‘zbek xalq ertaklari madaniy qadriyatlar olamida o‘ziga xos yo‘lboshchi vazifasini bajaradi, shuningdek, ularda yuqoridagi madaniyat uchun xos bo‘lgan xulq-atvor modellari mujassam.

Xalq orasida ularning turli qoida va normalarga asoslanganini inkor etib bo‘lmaydi, ammo ularning maqsadi bir – “muvaffaqiyatli” xulq-atvor namunalarini translyatsiya (namoyish etish) qilish. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalq ertaklaridagi qari inson obrazi ko‘p jihatdan ijobiy yoki salbiy qahramonlarni aks ettiribgina qolmay, ertakdagi bosh qahramon rivojida faol ishtirok etuvchi madaniy qadriyatlarni o‘ziga xos translyatorlari hisoblanadi.

Shunday qilib, bola va o‘sirinning rivojlanishi uchun shaxsning soyali tomonining konstruktiv roli aks etadi. Xalq ertaklari tufayli inson o‘zining shaxsiyati va boshqa odamning shaxsiyatining ko‘p qirralilagini atrofdagi dunyoga ta’sirida anglaydi, turli insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishni o‘rganadi.

R.Meyning so‘zlariga ko‘ra, chuqur dindorlik ma’naviyat manbai hisoblanadi. Insonning ma’naviy hayoti va uning faoliyati ulkan darajadagi psixoemotsional stress, psixologik muammolarni hal qilish zarurati, uning erkinligi, individualligi va ijtimoiy integratsiyasini boyitish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Empirik tadqiqotlarga ko‘ra, dindorlik ma’lum bir jarayonlardagi ishtirok va nazorat qilish bilan sezilarli darajada bog‘liq, ammo xavfni qabul qilish komponenti bilan bog‘liq emas. Dindorlik ham, hayotiy bardoshlilik ham depressiya va g‘azab bilan salbiy jihatdan bog‘liq, ammo dindorlik darajasidan qat’iy nazar, faqat hayotiy bardoshlilik depressiya darajasini bashorat qiladi. Shuningdek, ikkala ko‘rsatkich ham odamni stress va zo‘riqishdan, shuningdek, regressiv kurashdan himoya qilsa-da, faqat hayotiy bardoshlilik transformatsion kurashni, odamning vaziyatni yengish va qayta baholash bo‘yicha faol harakatlarini bashorat qilishga imkon beradi.⁶

⁶ Наливайко Т. В. Исследование жизнестойкости и ее связей со свойствами личности: дис... канд. психол. наук: 19.00.05 Челябинск, 2006. – 175 с. РГБ ОД, 61:06–19/644.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

V.M.Bexterevning nabirasi, taniqli fiziolog N.P.Bexterev o‘z kitobida yoshlik davrini eslab shunday yozgan: “dinni hayotimizdan chiqarib tashlash bilan biz nafaqat kuchli psixoterapiyadan, balki axloqiy qoidalar to‘plamidan ham ayrildik...”⁷

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, madaniyat ijtimoiy tajriba asosida davomiyligi ta’minlanavish. Bu jarayonda hayotiy bardoshlilik ham madaniyat tarkibida rivojlanishi yoki rivojlanmasligi mumkin. Har qanday holda ham milliy madaniyatlar o‘ziga qahramonlar yaratishga harakat qilar ekan, bu qahramonning shaxsiy fazilatlar orasida hayotiy bardoshlilik albatta mavjud bo‘ladi.

Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati

1. Фоминова А.Н. Жизнестойкости личности. Монография. МПГУ, Издательство «Прометей», М.; 2012
2. Абрамова Г. С.Возрастная психология: учеб, пособие для студ. вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 1998. – 672.
3. Рубинштейн С. Л. Человек и мир. – СПб.: Питер, 2003. – 512 с.
4. Медведева И. Я, Шишова Т. А. Книга для трудных родителей // «Изд-е Звонница – МГ» и «роман-газета», 1994. – 267 с.
5. Воловиковой М. И., Тихомировой С. В., Борисовой А. М. Психология праздника: Праздник в жизни человека. – М.: ПЕР СЭ, 2003. – 143 с.
6. Фрейдджер Р., Фейдимен Д. Личность, Теории, упражнения, эксперименты / пер. с англ. – СПб.: Прайм – ЕВРОЗНАК, 2006. – 704 с.
7. Наливайко Т. В. Исследование жизнестойкости и ее связей со свойствами личности: дис... канд. психол. наук: 19.00.05 Челябинск, 2006. – 175 с. РГБ ОД, 61:06–19/644.
8. Бехтерева Н. П. Магия мозга и лабиринты жизни / Н. П. Бехтерева. – М.: ACT; СПб.: Сова, 2011. – С. 383.
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>

⁷ Бехтерева Н. П. Магия мозга и лабиринты жизни / Н. П. Бехтерева. – М.: ACT; СПб.: Сова, 2011. – С. 383.
www.tadqiqotlar.uz